

TIL O'QITISH SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY STRATEGIK USULLAR

Choriyeva Shodiyona Bayramali qizi

*O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetining
xorijiy til va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi*

Nazarova Nigora Erdoshovna

Roman-german filologiyasi fakulteti

Nemis tili amaliy fanlar kafedrasi stajyor-o`qituvchisi

Kalit so'zlar: motivatsiya , internet , moliyaviy yetishmovchilik,o'rganish va o'rgatish strategiyasi, ta'lif tizimi

Anotatsiya: Siz ushbu maqolani o'qish davomida hozirgi kunda chet tillarini o'rganish qay darajada muhimligi va tillarni o'qitish metodlari bor ekanligi va internet orqali til o'rganishning afzalliklari , o'qitish sifatini oshirishda zamonaviy strategik usullari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lasiz.

Xorijiy tilni o'rgatish va o'rganish ta'lif tizmida eng muhim o'ringa ega hisoblanadi . Har qaysi bosqichda maktabgacha ta'lif , maktab , oliy ta'limda ham chet tillarini rivojlantirish uchun bir qancha islohatlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa , oliy ta'limga kirish imtihonlarida imtihon topshiruvchining til bilish darajasini tasdiqlovchi maxsus sertifikatlari bo'lishi kerakligi ham eng ustuvor islohatlardan biri deb aytish mumkin . Eng avvalo , chet tili nega muhim ?

Siz biror bir yangi tilni o'rganmoqchi bo'lsangiz , o'rganish davomida o'sha til qaysi davlatga tegishli bo'lsa , o'sha davlat haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lasiz degani . Ya'ni o'sha tildagi musiqalarni tinglaysiz, filmlarni tomosha qilasiz , ko'rsatuvlardan turli mavzudagi muhokamali suhbatlarni shu tilda ko'rasiz va tilni mukammal o'zlashtirasiz . Bu esa nafaqat bilimli bo'lishingiz , dunyoqarashning ham o'zgaradi. Til o'rganish insonni o'zgartira oladi . Chet tilini o'qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Ta'lif jarayonida jadvallardan foydalanib, o'quvchilar ma'lum bir grammatik qoidani,masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Chet tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lif jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion ta'lif texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi. Innovatsion ta'lif texnologiyalarning samaradorligi ularning ta'lif jarayonida to'g'ri va unumli foydalanilganidadir

Bugungi kunga kelib chet tillari ayniqsa, ingliz tili o'rganishga bo'lган talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki, bog'cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagи mutaxassislargacha ingliz tili o'rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobjiy holat albatta, chunki, til o'rganish o'sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf odatlarini o'rganish bilan birga shaxsiy manfaatlar yo'lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi.

Bir necha yillardan beri ingliz tilidan dars berib kelaman va shu davr oralig'ida o'quvchilar tomonidan eng tez-tez va ko'p beriladigan savol "Ingliz tilida qachon gaplashaman". Bu savolga javob berish uchun ko'p jihatlarga e'tibor berish talab qilinadi.

Avvalo, o'rganuvchi yoshi, qiziqishi va izchillik asosida til o'rganishga kundalik sarflaydigan vaqt miqdori, inglizcha muhit kabilar muhim bo'lsa, foydalaniladigan darslik sifati, mahoratlari va bilimli o'qituvchi va til o'rganishdagi to'g'ri yondashuv usullari kabilarning ham yangi til o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zan, o'quvchilar til o'rganishdagi qiyinchiliklarini shu tilda gaplashuvchi chet davlatlarida bo'lishga sharoitlari yoki inglizcha gaplashadigan do'stlari yo'qligi bilan bog'laydilar. Aslini olganda esa, hozirgi texnologiya va Internet rivojlanayotgan davrda bu kabi vajlar o'rinsiz deb o'ylayman.

Ijtimoiy tarmoqlarda xususan facebook, twitter, telegram orqali onlayn darslar olish yoki Youtube va skype orqali video darslar ham til o'rganishda juda ommalashgan va qulay usullardandir. Til o'rgatuvchi o'quv kurslarining ham o'rni beqiyos. Chunki, guruhdagi boshqa til o'rganuvchilar bilan maqsadingiz bir va shu yo'lда bir-biringiz bilan inglizcha muloqot qilishingiz, ma'lumot almashishingiz yoki raqobatbardosh bo'lishingiz mumkin.

Til o'rganishning innovatsion usullari borasida tajribali tilshunoslar va poliglotlar(bir necha tilda gaplashuvchilar)tavsiyalarin foydalanib va o'z shaxsiy tajribamga tayangan holda qiziqarli dars tashkillashtirishga harakat qilaman.

Hozirgi kunda til o'rgatishning zamонавиј usullari ishlab chiqilmoqda . Tilni faqatgina , mакtab darsliklari yoki har xil o'quv markazlaridan emas ijtimoiy tarmoqlar orqali tez va oson tarzda o'rganish mumkin . Har bir mavzular tushunarli va oson yo'llarda video yoki elektron holatda internetga joylangan. Sizga qanday holatda o'rganish qulay bo'lsa , kunning qaysi qismi sizga qulay bo'lsa bemalol bilim olishingiz mumkin. Oliy toifali ustozlar yangi metodlardan foydalaminishga harakat qilishmoqda . Ya'ni o'rganayotgan bola doim tilni o'rganishga qiziqish bildirishi va maksimal holatda harakat qilishi lozim . Agar qiziqish va ishtiyoq kamaysa o'qish potensiali keskin tushib ketadi . Bu esa nafaqat til o'rganshga , ilmga bo'lган harakatni yo'qotib qo'yishi hech gap emas .

Quyidagi holatlarni ustoz qanday bartaraf qilishi mumkin ?

1 **Agar o'quvchi darsdan zeriksa**, ustoz chalg'ituvchi va ozroq dam beruvchi o'yin yoki musiqalardan foydalanishi mumkin . Chunki inson miyasi to'xtovsiz va qattiq ta'sir dars tayyorlay olmaydi . O'qituvchi shunday o'yinlar o'ylab topsinki , qancha qiyin bo'lsa o'rganuvchining ishtiyoqi yo'qolmasin . Doim ishtiyoq va xohish birinchi o'rinda bo'lishi kerak

2 **Motivatsiyaning tushib ketishi** . Ko'pincha bu atrofdagi odamlardan va ualrning munosabatidan kelib chiqadi , hayot to'siqlari ham sabab bo'lishi mumkin . Ya'ni harakatiga yarasha natija olmasa har qaysi o'quvchining dars tayyorlashga kuchi bo'lmaydi . Shunday vaqtarda ustoz ,eng avvalo, o'quvchini eshitib uning muammosini aniqlab , hayotiy tajribasidan kelib chiqib , to'g'ri tavsiyalarni berib o'tishi lozim . Bu unga yaxshi qo'llab-quvvatlash bo'ladi .

3 **Moliyaviy yetishmovchilik** . Agarda sizning o'quvchingiz moliyaviy tomondan qiynalayotgan bo'lsa , unga qo'lingizdan kelgancha yordam bering chegirma asosida o'qishga imkon bering . Bepul darslar tashkil qiling . Keyinchalik o'quvchingiz yaxshi natijalarga erishadi .

Xorijiy tilni o'zlashtirishning odatiy yo'sini shunday: oldin gap-so'zlar va iboralar esda saqlab qolinadi, ke-yin grammatika o'rganiladi. Masalan, boshqa tilli tengdoshlari orasiga tushib qolgan bolalar chet tilini juda oson o'rganadi. Gaplarini grammatic jihatdan ham to'g'ri tuzadi. Chunki ular til o'rganish jarayonida hamisha vaziyatning ichida bo'ladi. Shu sabab ham tilni his qilishlari oson kechadi.

Hozirgi kunda bu muammolarni yo'qotishning ko'p va samarali yo'llari ishlab chiqilmoqda . Ya'ni internetga onlayn darslar qisqa va tushunarli formatda joylab borilmoqda . Bu talabalar va chet tili o'rganuvchilar uchun ancha foydali va manfaatli . Mashhur va malakali ustozlar ijtimoiy tarmoqlarda maxsus onlayn platforma dastur asosida darsliklar yaratishgan . Darslar sifati a'lo darajada , har bir tushunchaga alohida urg'u berib o'tilgan . Eng muhim , darslar shunchaki o'quvchiga yuklab berilmaydi . o'quvchidan qattiq o'qish talab qilinadi . Ya'ni o'rganuvchi darslarni to'liq o'rganib bo'lganidan vazifalarni bajarishi va o'z xulosasini keltirib o'tishi kerak . Chunki ustoz tekshirish davomida siz darsni tushunganingiz va topshiriqlarni bajarganingizga e'tibor beradi . Bu darslar ma'lum bir vaqtda o'tilmaydi. Xohlagan vaqtingizda o'z parolingiz orqali dasturga kirasisiz . Bu ancha qulay va samarali usul hisoblanadi.

Bundan tashqari bepul darslar ijtimoiy tarmoqlarda istalgan tartibda mavjud . Audio , video va rasmlar orqali topishingiz mumkin .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 <https://moluch.ru/archive/138/39058/>
- 2 <https://sinaps.uz/maqola/7894/>
- 3 <https://medium.com/@fotimaabdulaminova/til-organish-kaliti-12a90affbca8>